

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR RIVOJLANISHI SHAROITIDA MAFKURAVIY IMMUNITET SHAKLLANISHINING SIYOSIY DETERMINANTLARI

Abdulxakimov Bobur

O'zbekiston milliy universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning siyosiy determinantlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli makonning kengayishi, axborot oqimlarining jadallashuvi, ijtimoiy tarmoqlarning siyosiy kommunikatsiyadagi rolining ortishi hamda turli axborot va mafkuraviy ta'sirlarning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Mafkuraviy immunitetni shakllantirish jarayoniga davlat siyosati, siyosiy institutlarning samaradorligi, fuqarolik jamiyati institutlari, media va axborot savodxonligi, ta'lim tizimi hamda milliy qadriyatlarning ta'siri ochib beriladi. Shuningdek, raqamli muhitda dezinformatsiya, manipulyativ kontent, radikal g'oyalar va turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi barqaror ijtimoiy-siyosiy qarashlarni shakllantirishning institutsional mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari raqamli transformatsiya sharoitida jamiyatning axborot xavfsizligini mustahkamlash, fuqarolarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va mafkuraviy barqarorlikni ta'minlashda kompleks siyosiy yondashuv zarurligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, raqamli makon, mafkuraviy immunitet, siyosiy determinantlar, axborot xavfsizligi, siyosiy kommunikatsiya, dezinformatsiya, media savodxonlik, tanqidiy fikrlash, mafkuraviy tahdidlar, fuqarolik jamiyati, raqamli transformatsiya.*

Аннотация: *В статье анализируются политические детерминанты формирования идеологического иммунитета в условиях стремительного развития цифровых технологий. Особое внимание уделяется расширению цифрового пространства, интенсификации информационных потоков, возрастающей роли социальных сетей в политической коммуникации, а также влиянию информационных и идеологических воздействий на мировоззрение молодежи. Раскрывается влияние государственной политики, эффективности политических институтов, институтов гражданского общества, медиа-и информационной грамотности, системы образования и национальных ценностей на процесс формирования идеологического иммунитета. Рассматриваются также институциональные механизмы формирования устойчивых социально-политических установок, способных противостоять дезинформации, манипулятивному контенту, радикальным идеям и различным идеологическим угрозам в цифровой среде. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости комплексного политического подхода к укреплению информационной безопасности общества, развитию критического мышления граждан и обеспечению идеологической устойчивости в условиях цифровой трансформации.*

Ключевые слова: *цифровые технологии, цифровое пространство, идеологический иммунитет, политические детерминанты, информационная безопасность, политическая*

коммуникация, дезинформация, медиаграмотность, критическое мышление, идеологические угрозы, гражданское общество, цифровая трансформация.

Abstract: *This article examines the political determinants of ideological immunity formation in the context of the rapid development of digital technologies. Particular attention is paid to the expansion of the digital environment, the intensification of information flows, the growing role of social media in political communication, and the influence of various informational and ideological impacts on the worldview of young people. The study explores the role of public policy, the effectiveness of political institutions, civil society organizations, media and information literacy, the education system, and national values in shaping ideological immunity. It also analyzes institutional mechanisms for developing resilient socio-political attitudes capable of resisting disinformation, manipulative content, radical ideas, and various ideological threats in the digital environment. The findings demonstrate the need for a comprehensive political approach to strengthening information security, developing citizens' critical thinking skills, and ensuring ideological resilience amid digital transformation.*

Keywords: *digital technologies, digital environment, ideological immunity, political determinants, information security, political communication, disinformation, media literacy, critical thinking, ideological threats, civil society, digital transformation.*

Kirish. Raqamli texnologiyalar turli sohalaridagi siyosiy jarayonlar va jihatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Raqamli transformatsiya davrida axborot texnologiyalari hayotimizning barcha sohalariga kirib borar ekan, siyosiy qarorlar va strategiyalar jamiyatni raqamlashtirish sur'ati va yo'nalishini belgilovchi asosiy determinantlarga aylanadi. Raqamlashtirish, raqamli texnologiyalarni faoliyatning turli sohalariga integratsiyalash jarayoni davlat va fuqarolar o'rtasidagi siyosiy dinamikaga hamda o'zaro munosabatlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu paragrafda biz siyosiy omillarning jamiyatni raqamlashtirish jarayoniga va aksincha davlat siyosatining raqamli texnologiyalarning rivojlanishiga ta'sirini o'rganamiz, shuningdek, ular orasidagi o'zaro ta'sir munosabatlarning asosiy jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Raqamli texnologiyalar bilan bog'liq bo'lgan asosiy siyosiy jihatlardan biri – davlat fuqarolarining **Elektron hukumat (EH)dagi ishtiroki**, zero bugungi kunda EH jamiyatning barcha jabhalarini qamragan holda davlatning rivojlanish strategiyasidagi eng muhim, eng dolzarb, eng ustuvor yo'nalishdir.

Ma'lumki, Elektron hukumat – bu davlat va ma'muriy xizmatlarning samaradorligi, shaffofligi va ulardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan foydalanishdir[1]¹.

Davlat siyosatida EHning o'rni va roli quyidagilar bilan belgilanadi:

1) fuqarolarga ko'rsatiladigan davlat organlari xizmatlar sifatining yaxshilanishi. Elektron hukumat fuqarolar va korxonalarga davlat idoralarida jismoniy ishtirok etishni talab qilmasdan,

¹ Тедеев А. А., Усанов В. В. Электронное государство. М., 2008; Сидорова А. А. Электронное правительство. Учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры. М.: Издательство Юрайт, 2017. - 165 с.

davlat xizmatlari va ma'lumotlarini onlayn ravishda olish imkoniyatini beradi. Bu foydalanuvchilar uchun vaqt va moliyaviy xarajatlarni kamaytiradi;

2) shaffoflikning oshishi. Elektron tizimlardan foydalanish davlat organlarining yanada shaffof ishlashiga imkon beradi, chunki ko'plab operatsiyalar va jarayonlar jamoatchilik nazorati uchun mavjud bo'ladi;

3) byurokratiyaning kamayishi. AKTdan foydalanish xizmatlar ko'rsatish va ma'muriy ishlar bilan bog'liq bo'lgan ko'plab jarayonlarni avtomatlashtirishga imkon beradi, bu esa byurokratiyaning oldini olishga, uni kamaytirishga va davlat idoralari xizmatining samaradorligining oshishiga olib keladi;

4) fuqarolik faolligining oshishi. Elektron hukumat fuqarolarning davlat idoralari bilan o'zaro munosabatlari uchun yangi mexanizmlarni taqdim etadi, masalan, onlayn murojaatlar, fikr-mulohazalar, elektron ovoz berish va boshqalar;

5) raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi. Elektron hukumatni joriy etish AKT sohasi, raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalarni rivojlantirishga yordam beradi, bu esa mamlakatning iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz;

6) korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligining oshishi. Elektron tizimlar manipulyatsiya va korrupsiya amaliyotini kamaytirishi mumkin, chunki ko'plab jarayonlar avtomatlashtirilgan va tekshiriladigan bo'ladi.

7) boshqaruv va qarorlarni qabul qilish sifatining yaxshilanishi. To'plangan ma'lumotlar, ularning tahlillari davlat idoralariga mavjud resurslarni yanada samarali boshqarish, ehtiyojlarni bashorat qilish va ma'lumotlarga asoslangan qarorlarni qabul qilishga yordam beradi.

8) inqirozlarga nisbatan o'z vaqtida chora ko'rish imkoniyatlarining oshishi. Elektron platformalar fuqarolarni zudlik bilan xabardor qilish va tabiiy ofatlar yoki pandemiya kabi inqiroz holatlarida harakatlarni muvofiqlashtirish uchun ishlatilishi ulardan ko'riladigan zararni minimallashtirishi amaliyotda isbotlangan.

Raqamli texnologiyalar fuqarolarning siyosiy hayotda ishtirok etishi uchun yangi vositalarni taqdim etadi. Elektron ovoz berish, onlayn murojaat va shikoyatlar, petitsiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa aloqa vositalari fuqarolarga o'z fikrlarini bildirishga va siyosiy tuzilmalar bilan o'zaro aloqada bo'lishga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar bilan ta'minlangan elektron ishtirok va fuqarolik ishtiroki fuqarolar uchun siyosiy sohada yangi imkoniyatlar ochmoqda. Saylovda ovoz berish va ariza berish kabi an'anaviy ishtirok etish shakllari endi onlayn muhitga o'tkazilishi mumkin, bu jarayonni yanada qulay va samarali qiladi.

Elektron ovoz berish – bu elektron ishtirok etishning asosiy vositalaridan biridir. Fuqarolar an'anaviy qog'oz byulletenlari o'rniga maxsus veb-platformalar yoki mobil ilovalar orqali ovoz berishlari mumkin. Bu choralar navbatlar, uzoq masofalar yoki cheklangan ovoz berish soatlari kabi saylov uchastkalarida jismoniy ishtirok etish bilan bog'liq muammolardan xolos qiladi. Elektron ovoz berish shifrlash va boshqa texnologiyalardan foydalanish tufayli saylovlarning xavfsizligi va ishonchligi darajasini oshirishi mumkin.

Ko'rinib turibdiki, Elektron hukumat zamonaviy ma'muriy amaliyotning tobora dolzarb va muhim yo'nalishiga aylanib bormoqda; ko'plab mamlakatlar ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini

oshirish, fuqarolar va biznes bilan o‘zaro munosabatlarni yaxshilash uchun AKT texnologiyalarini faol joriy etmoqda. Yuqorida qayd etilgan barcha holatlar davlat siyosatining muhim yo‘nalishlari bo‘lib, mamlakatimiz rivojlanish strategiyasida ustivor vazifalar sifatida belgilangan[2]².

Raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy siyosiy jihatlardan yana biri – bu **Raqamli diplomatiya**. Zamonaviy texnologiyalar diplomatiya sohasiga yangi imkoniyatlar olib keldi. Davlat arboblari orasidagi virtual uchrashuvlar, elektron yozishmalar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa onlayn platformalardan foydalanish xalqaro munosabatlarning ajralmas qismiga aylandi va mamlakatlarga ma‘lumot almashish, muzokaralar olib borish va aloqalarni o‘rnatish imkonini berdi.

Raqamli diplomatiya – bu zamonaviy texnologiyalar davlatlar va xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro aloqalarni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydigan diplomatik ish sohasi, u virtual muhitda ma‘lumot almashish, muzokaralar olib borish va munosabatlarni o‘rnatish uchun yangi vositalar va imkoniyatlarni taqdim etadi. Raqamli diplomatiyaning eng keng tarqalgan jihatlaridan biri – virtual uchrashuvlar. Videokonferensiya aloqa texnologiyalari diplomatlarga o‘z mamlakatlaridan chiqmasdan muhim masalalar yechimini topish maqsadida onlayn uchrashish va muhokama qilish imkonini beradi. Bu ilgari yuzma-yuz uchrashuvlarni tashkil etishga sarflangan vaqt va resurslarni tejaydi. Virtual uchrashuvlar, shuningdek, tarjima va talqin vositalaridan foydalanish imkoniyatini yaratib, turli madaniyatlar va tillar o‘rtasidagi aloqani osonlashtiradi.

Hozirgi zamon diplomatik ishning ajralmas qismlaridan yana biri – elektron yozishmalar. Diplomatlarining rasmiy xatlari, eslatmalari va boshqa hujjatlari elektron pochta orqali yuboriladi. Bu ma‘lumot almashish jarayonini tezlashtiradi va arxivlash, hujjatlar bazasiga kiritishni osonlashtiradi; onlayn platformalar, shuningdek, xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish va tasdiqlash jarayonini osonlashtiradigan elektron hujjatlarni yaratish va imzolash imkoniyatini beradi.

Keyingi yillarda ijtimoiy tarmoqlar va boshqa onlayn platformalardan foydalanish raqamli diplomatiyaning muhim vositasiga aylandi. Ko‘plab davlatlar va diplomatik tashkilotlar Instagram, Facebook, Twitter, LinkedIn kabi ijtimoiy tarmoqlarda ma‘lumot tarqatish, o‘z mamlakati imidjini yaratish va boshqa mamlakatlar hamda jamoatchilik bilan muloqot qilish uchun faol ishtirok etmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, shuningdek, fuqarolar va nodavlat tashkilotlari bilan ommaviy munozaralar, bahslar va muloqotlar uchun platforma yaratadi.

Biroq barcha afzalliklarga qaramay, raqamli diplomatiya ham bir qator qiyinchiliklar va xavflarga duch keladi. Ulardan biri – kibermakondagi xavfsizlikka tahdidlar ekanligi ma‘lum. **Kiberxavfsizlik** raqamli diplomatiya sohasida tobora muhim siyosiy ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda, chunki xakerlar va tajovuzkorlar tizimlarni buzishga va maxfiy ma‘lumotlarga kirishga harakat qilish hollari ko‘p uchramoqda. Shunga ko‘ra, diplomatik munosabatlarga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan onlayn muhitda soxta yangiliklar va noto‘g‘ri ma‘lumotlarni nazorat qilish bilan bog‘liq muammolar keskin dolzarblashmoqda.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi milliy xavfsizlikka ham yangi tahdidlarni keltirib chiqardi. Kiberhujumlar, xakerlik hujumlari va kiber josuslik mamlakat rivojlanishiga jiddiy siyosiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin, chunki ular davlat tuzilmalari ishini buzishi, saylovlarga ta‘sir qilishi va

² Ўзбекистон Республикаси Президенти 2020 йилининг 28 апрелида «Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарор // <https://lex.uz/docs/4800657>

ba'zi siyosiy aktorlarning pozitsiyalarini mustahkamlashi mumkin. Bu tahdidlarning batafsilroq izohlashga harakat qilamiz.

Kiberhujumlar – bu kompyuter tizimlari, tarmoqlari, dasturiy ta'minot yoki ma'lumotlarni buzish, yo'q qilish yoki ruxsatisiz kirish maqsadida qaratilgan zararli harakatlar. Kiberhujumlar keng tarqalgan virus hujumlari va shaxsiy kompyuterlarga xakerlik hujumlaridan tortib yirik korporatsiyalar, davlat tashkilotlari yoki muhim axborot infratuzilmasiga nisbatan murakkab va maqsadli kiberhujumlarga qadar bo'lishi mumkin. Kiberhujumlar katta moddiy va moliyaviy yo'qotishlarga, shuningdek, davlat tuzilmalari faoliyatining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Xakerlik hujumlari – bu kompyuter tizimlari yoki tarmoqlariga ruxsatsiz kirish maqsadida xakerlar deb ataladigan tajovuzkorlarning harakatlari. Xakerlar tizimlarga kirishi, maxfiy ma'lumotlarni olishi, ma'lumotlarga o'zgartirishlar kiritishi yoki hatto kompyuter resurslarini boshqarishi mumkin. Xakerlik hujumlari shaxsiy kompyuterlarga ham, shaxsiy ma'lumotlarga ham, davlat tizimlariga yoki muhim infratuzilmaga ham yo'naltirilishi mumkin. Xakerlar o'z mahoratidan siyosiy josuslik, ma'lumotlarni qalbakilashtirish, saylovlarni manipulyatsiya qilish va boshqa buzg'unchi harakatlar uchun foydalanishlari mumkin.

Kiber josuslik – maxfiy yoki himoyalangan ma'lumotlarni olish uchun kompyuter tizimlari yoki tarmoqlaridan noqonuniy ravishda ma'lumot to'plash jarayoni. Shtatlar, korporatsiyalar va boshqa siyosiy aktorlar rejalar, strategiyalar, texnik ma'lumotlar yoki davlat sirlari kabi boshqa odamlarning maxfiy ma'lumotlariga kirish uchun kiber josuslikdan foydalanishlari mumkin. Kiber josuslik jiddiy siyosiy oqibatlariga olib kelishi mumkin, chunki bu tajovuzkorlarga raqobatdosh ustunlikka erishish, siyosiy jarayonlarni boshqarish yoki hukumat tuzilmalaridagi zaifliklarni aniqlash imkonini beradi.

Zamonaviy dunyoda, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi kontekstida yoshlar siyosiy va mafkuraviy sohalarning faol ishtirokchisi sifatida hukumatimiz diqqat markazida[3]³ ekanligi yuqoridagi paragraflarda qayd etilgan edi. Yangi avlodning axborot resurslari, ijtimoiy tarmoqlar va internet platformalari bilan o'zaro ta'siri mafkuraviy munosabatlarni shakllantirish uchun o'ziga xos zamin yaratadi. Shu bilan birga, yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish va saqlashga siyosiy omillarning ta'siri masalasi tobora dolzarblashadi.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida yoshlarning mafkuraviy immuniteti – bu axborot makonida taqdim etilgan mafkuraviy ta'sir vositalarini tahlil qilish, baholash va filtrlash qobiliyatidir. Raqamli muhitda bu jarayon ayniqsa dezinformatsiya, manipulyatsiya va psixologik ta'sirlar yangi vositalarga ega bo'lgan davrda qiyinlashadi. Zero raqamli texnologiyalar mafkuraviy immunitetni shakllantirish jarayoniga yangi murakkablik darajasini olib keladi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun asosiy ma'lumot manbalariga aylandi va bu bilimlarni boyitish va tanqidiy fikrlash, manipulyatsiya va psixologik jarayonlarga ta'sir qilish uchun imkoniyat yaratadi. Axborotni filtrlash, ishonchli manbalarni aniqlash va taqdim etilayotgan faktlarni bir-biridan farqlash bugungi raqamli haqiqatda muhim ko'nikmalar talab qilmoqda.

“Raqamli iqtisodiyotning rivoji. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi iqtisodiy faoliyatning yangi shakllari va raqamli platformalarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi, bu global iqtisodiyotning manzarasini sezilarli darajada o'zgartirdi hamda siyosiy va iqtisodiy tizim uchun noyob

³ Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги қонуни // <https://lex.uz/acts/3026246>

muammolarni keltirib chiqardi. Olimlarning fikricha, bu jarayon raqamli iqtisodiyotda quyidagi asosiy yo‘nalishlarni ehtiyotkorlik bilan tartibga solish zarurligi to‘g‘risida ilmiy asoslangan bayonotlarga olib keldi”[4]⁴.

Xulosa. Soliq va soliq bazasi: raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan ko‘plab kompaniyalar daromadni ko‘paytirish va soliq majburiyatlarini minimallashtirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalangan holda global operatsiyalarga o‘tdilar. Bu Milliy soliq tizimlari uchun muhim muammolarni keltirib chiqaradi, bu esa davlatlar daromadlarining yo‘qolishiga va raqobatning buzilishiga olib keladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli kompaniyalar uchun soliq siyosatini qayta ko‘rib chiqish, shu jumladan, minimal soliq bazasi va jahon miqyosida soliqlarni yig‘ish mexanizmlarini yaratish davlatlarning moliyaviy barqarorligini saqlash uchun zarurdir.

Monopoliyalar va bozor konsentratsiyasi: raqamli iqtisodiyot dunyosida ma‘lumotlar va manbalarga kirishni boshqaradigan yirik texnologik monopoliyalarning paydo bo‘lishi tendensiyasi mavjud. Bu innovatsiya va raqobatga tahdid soladi. Ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, adolatli raqobatni ta‘minlash, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va iste‘molchilar manfaatlarini himoya qilish uchun bozorni faol tartibga solish va monopoliyaga qarshi siyosat zarur.

Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish va ma‘lumotlar maxfiyligi: ma‘lumotlar asosiy manbaga aylangan raqamli iqtisodiyotda ma‘lumotlar himoyasi va iste‘molchilarning maxfiyligini ta‘minlash muhimdir. Ilmiy tadqiqotlar raqamli kompaniyalar tomonidan to‘plangan ma‘lumotlar ustidan nazoratni ta‘minlaydigan va fuqarolarning shaxsiy ma‘lumotlarini himoya qiladigan qat‘iy qoidalar va qonunlarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тедеев А. А., Усанов В. В. Электронное государство. М., 2008.
2. Сидорова А. А. Электронное правительство. Учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры. М.: Издательство Юрайт, 2017.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги қонуни // <https://lex.uz/acts/3026246>
4. Bukht R., Heeks R. Defi ning, Conceptualising and Measuring the Digital Economy // International Organisations Research Journal, 2018, vol. 13, no 2, pp. 143–172. DOI: 10.17323/19967845-2018-02-07;
5. Kirton J. J., Warren B. G. 20 Governance of Digitalization. International Organisations Research Journal, 2018, vol. 13, no 2, pp. 17–47. DOI: 10.17323/1996-7845-2018-02-02. (In English).

⁴ Bukht R., Heeks R. Defi ning, Conceptualising and Measuring the Digital Economy // International Organisations Research Journal, 2018, vol. 13, no 2, pp. 143–172. DOI: 10.17323/19967845-2018-02-07; Kirton J. J., Warren B. G. 20 Governance of Digitalization. International Organisations Research Journal, 2018, vol. 13, no 2, pp. 17–47. DOI: 10.17323/1996-7845-2018-02-02. (In English).4. Kling R., Lamb R. IT and Organizational Change in Digital Economies. Understanding the Digital Economy / E. Brynjolfsson, B. Kahin (eds). Cambridge: MIT Press. 2000, pp. 295–324.5. Margherio L. et al. The Emerging Digital Economy. Washington, DC: Department of Commerce. 1999. URL: http://www.esa.doc.gov/sites/default/files/emergingdig_0.pdf.

6. Kling R., Lamb R. IT and Organizational Change in Digital Economies. Understanding the Digital Economy / E. Brynjolfsson, B. Kahin (eds). Cambridge: MIT Press. 2000, pp. 295–324.5.
7. Margherio L. et al. The Emerging Digital Economy. Washington, DC: Department of Commerce. 1999. URL: http://www.esa.doc.gov/sites/default/files/emergingdig_0.pdf.